

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60811000– O‘simliklar karantini va himoyasi
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti". Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60811000-O'simliklar karantini va himoyasi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60811000-O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60811000-O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60811000-O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60811000-O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	<i>60811000-O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60811000-O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60811000-O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2	<i>60811000 - O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	9
2.3.3	<i>60811000 - O'simliklar karantini va himoyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1.60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining tavsifi

60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1.60811000–O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60811000–O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqishva yangilash, ular asosida samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o‘qituvchilari;

– ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriatbitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

– oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2.60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1.60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi - O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy – tadqiqot institutlarida;

- qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi idoralarda;

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar, klasterlar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqarmalarida;

- ishlab chiqarish korxonalarida

- davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechish.

60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tamomlagandan so‘ng, muassasalarida majburiy va tanlov fanlaridan foydalangan holda dars berish, O‘zbekiston respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda O‘simliklar karantini va himoyasi sohasida va tarmoq ilmiy – tadqiqot institutlarida, agroklastarlarda, idoralarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. 60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*

1.2.4. 60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60811000 – O‘simliklar karantini va himoyasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bshlishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;
- Vatan tarixini bilishi, ma‘naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha, raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tadbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshiriladigan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- qishloq xo'jalik o'simliklari zararli organizmlari tur tarkibini aniqlash, o'simliklarni kasallik, zararkunanda va begona o'tlardan himoya qilish va karantinda samarali va resurstejamkor faoliyatni tashkil eta olish;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

Ilmiy tadqiqot faoliyati;

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy - uslubiy faoliyat turlari bo'yicha turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlili qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- o'simliklarni himoya qilish fani sohasiga oid ilmiy - tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy - tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tadbiiq etishda qatnashishi bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. 60811000 – O'simliklar karantini va himoyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyati shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvurga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;
- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohaslarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularni hal etishni istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- qishloq xo'jalik ekinlarida uchraydigan zararli organizmlarni turlarini aniqlay olishi;
- o'quv va ishlab chiqarish-texnologik amaliyotlar hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, o'z ustida ishlash va ilmiy asosda ish faoliyatini tashkil etish;
- qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;
- qishloq xo'jaligida o'simliklar karantini va himoyasi, tadbirlarining bajarilishini sifatini aqlli (smart) texnologiyalar yordamida nazorat qilish;
- respublika hamda xorijda chop etilgan qishloq xo'jaligi sohasi va o'simliklar karantini va himoyasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- o'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni zararli organizmlari namunalarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- o'simliklarni himoya qilish, biologik vositalarni ko'paytirish va qo'llash texnologiyalari, pestitsidlardan amalda foydalanishni ekologik xavfsiz usullari va vositalarini qo'llash bo'yicha bilimlarni egallashi lozim;
- agrobiotsenozlarda zararli organizmlar rivojlanishi va tarqalish xaritasini tuzish;
- o'simliklar va zaxira mahsulotlarini zararli organizmlardan uyg'unlashgan himoya qilish tizimini ishlab chiqish;
- qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklari va zararkunandalarini hisobga olish, paydo bo'lishini xamda tarqalishini bashorat qilish;
- o'simliklar karantini va himoyasi sohasida ochiqda va issiqxonalarda zarur texnika vositalarning tayyorgarligini tekshirish, ishlab chiqarishga eng samarali mexanizatsiya vositalarini tanlash;
- loyihalashtirishda zamonaviy kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tadbiiq qilish, texnologik jarayonlarni loyihalash va ularni amalda joriy qilish borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma - ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar-bakalvriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigagn fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Malakaviy amaliyot-umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi:

2.3.1 Kvalifikatsiya: agronom, entomolog, fitopatolog, karantin- inspektori

2.3.2. 60811000 – O'simliklar karantini va himoyasi ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5280	176
Tanlov fanlar	1140	38
Malakaviy amaliyot	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60811000 – O'simliklar karantini va himoyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
1.00		Majburiy fanlar	5280	176	
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1104	Oliy matematika	120	4	1
1.08	ANFKBKB1104	Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo	120	4	1
1.09	BO'FZB1208	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXITTB1204	Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar	120	4	2
1.11	QXAKTB1204	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	2
1.12	UENZOOB1110	Umumiy entomologiya va zoologiya	300	10	1,2
1.13	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4

	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
1.14	UFTMKB1310	Umumiy fitopatologiya va mikrobiologiya	300	10	3,4
1.15	DHMELB1308	Dehqonchilik va melioratsiya	240	8	3,4
1.16	O'SHPB1308	O'simlikshunoslik va paxtachilik	240	8	3,4
1.17	O'SIMB1306	O'simliklar imuniteti	180	6	3
1.18	O'KZKB1510	O'simliklarning karantin zararkunandalari va kasalliklari	300	10	5,6
1.19	MEVSABB1508	Mevachilik va sabzavotchilik	240	8	5,6
1.20	MIKLB1506	Mikologiya	180	6	5
1.21	QXZOROAB1606	Qishloq xo'jaligi zararli organizmlari rivojlanishini oldindan aniqlash	180	6	6
1.22	QXMSSB1706	Qishloq xo'jaligi maxsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlash	180	6	7
1.23	QXENTOB1710	Qishloq xo'jaligi entomologiyasi	300	10	7,8
1.24	QXFITOB1710	Qishloq xo'jalik fitopatologiyasi	300	10	7,8
1.25	O'ZOBHQB1706	O'simliklarni zararli organizmlardan biologik himoya qilish	180	6	7
1.26	O'KHQATB1806	O'simliklarni kimyoviy himoya qilish va agrotoksikologiya	180	6	8
1.27	O'MKFTEB1806	O'simliklar va maxsulotlar karantinida fitoekspertiza	180	6	8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1140	38	3,4,5,6,8
		Jami	6420	214	
		Malakaviy amaliyotlar	660	22	2,4,6,7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami	780	26	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 632

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

o'simliklarni himoya qilish, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, malaka amaliyot, attestatsiya, o'quv jarayoni, hasharot, kanalar, nematodalar, kemiruvchilar, kanalar, entomologiya, fitopatologiya, zamburug', bakteriya, viruslar, entomofag, akarifag, o'simlik, zararkunandalari, kasalliklar, begona o'tlar, pestitsidlar, entomofaglar, kimyoviy, biologik, agrotexnik usullar, uyg'unlashgan kurash, hasharot, o'rgimchakkana.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S.Y. Islamov

2023 yil « 10 » 07



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor  SH.Yakubov

2023 yil « 21 » 08
M.O'.



O'simliklar karantini va himoyasi agentligi
direktor o'rinbosari v.b.

 B. Xamrayev

2023 yil « 19 » 07
M.O'.



O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy
tadqiqot instituti

Direktor  A. Anorbayev

2023 yil « 17 » 07
M.O'.



Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Rektor  K. Komilov

2023 yil « 18 » 07
M.O'.



“DOGALAGROCHEMICALS” MCHJ

Direktor  Baktyiar Medetbek uulu

2023 yil « 20 » 07
M.O'.



Toshkent davlat agrar universiteti 60811000– O‘simliklar karantini va himoyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 10 ” 07 - 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori professor S.Ya.Islamov, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti direktori professor A.Anorbayev hamda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori professor K.Komilov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60811000– O‘simliklar karantini va himoyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me‘yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor**

**O‘simliklar karantini va himoyasi
ilmiy tadqiqot instituti direktori,
professor**

**Andijon qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti rektori
professor**

S.Ya.Islamov

A.Anorbayev

K.Komilov